



SOLIQ RISKINI BAHOLASHNING XORIJ TAJRIBASI VA UNDAN MILLIY SOLIQ TIZIMIDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI

PhD Nasimov Ravshanjon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-5663-1604

ravshanjonnasimov2020@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada soliq riskini baholashning xorij tajribasi va undan milliy soliq tizimida foydalanish yo'nalishlariga oid ilmiy qarashlarning ahamiyati, O'zbekistonda iqtisodiy xatti-harakatlar va natijalarni shakllantirishda soliq siyosatining ahamiyati ko'rsatiladi. Ular yuqori soliq stavkalari, murakkab qoidalar va past soliq axloqi tadbirkorlik faolligi va rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lishi jihatidan o'rganilgan hamda ilmiy xulosa va takliflar shakllantirilib, soliq riskini baholashning xorij tajribasi va undan milliy soliq tizimida foydalanish yo'nalishlarining iqtisodiy mohiyati va unga oid ilmiy qarashlar nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: soliq hisoboti, soliq riski, soliq stavkalari, byudjet xarajatlari, resurs soliqlari, yer solig'i, mahalliy soliqlar, soliq, byudjet, soliq imtiyozlari.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОЦЕНКИ НАЛОГОВЫХ РИСКОВ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОЙ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ

PhD Насимов Равшанжон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье показана значимость научных взглядов на зарубежный опыт оценки налоговых рисков и направления его использования в национальной налоговой системе, значение налоговой политики в формировании экономического поведения и результатов в Узбекистане. Они изучаются с точки зрения высоких налоговых ставок, сложных правил и низкой налоговой этики как серьезных препятствий предпринимательской деятельности и развитию, а также сформулированы научные выводы и предложения, рассматривающие экономическую сущность зарубежного опыта оценки налоговых рисков и направления его использования в национальной налоговой системе и научные взгляды на него.

Ключевые слова: налоговая отчетность, налоговый риск, налоговые ставки, бюджетные расходы, ресурсные налоги, земельный налог, местные налоги, налог, бюджет, налоговые льготы.

FOREIGN EXPERIENCE OF TAX RISK ASSESSMENT AND DIRECTIONS OF ITS USE IN THE NATIONAL TAX SYSTEM

PhD **Nasimov Ravshanjon**

Tashkent State University of Economics

Abstract. *The article shows the importance of scientific views on foreign experience of tax risk assessment and directions of its use in the national tax system, the importance of tax policy in shaping economic behavior and results in Uzbekistan. They are studied from the point of view of high tax rates, complex rules and low tax ethics as serious obstacles to entrepreneurial activity and development, and scientific conclusions and proposals are formulated, considering the economic essence of foreign experience of tax risk assessment and directions of its use in the national tax system and scientific views on it.*

Keywords: *tax reporting, tax risk, tax rates, budget expenditures, resource taxes, land tax, local taxes, tax, budget, tax benefits.*

Kirish.

O'zbekiston sharoitida soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish asosida ularda ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda ularda yuzaga keladigan soliq xavfini optimal baholash orqali davlat byudjetining zarar ko'rish holatlarini kamaytirishga qaratilgan amaliy choralarni samarali amalga oshirilishga keng urg'u berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi "Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarorida respublikamiz soliq tizimida soliq xavfini baholash va soliq to'lovchilarni insofililik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish, soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini ularning moliyaviy va soliq hisobotlari asosida ular duch kelishi mumkin bo'lgan turli xil iqtisodiy risklar (xavflar)ni baholashning turli mezonlarini ishlab chiqish, soliq risklarini aniqlab berishga xizmat qiluvchi mezonlar esa, soliq to'lovchilarning turli xil ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish orqali aniqlanishi ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlaridan Boboev (2020) o'zining ilmiy tadqiqotlarida soliqlarni prognoz qilish jarayoni soliq riski bilan doimiy bog'liq bo'ladi, agar, soliq riski to'g'ri baholansa, soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi xatoliklar yoki aniqlikka ega ko'rsatkichlarning haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi degan fikrni bildiradi

Ashurov bu borada (2020) "Risk", "tavakkalchilik" kabi tushunchalarni bir xil ma'nodagi tushunchalar deb qarash o'rinli emas, risk-birinchi navbatda xavf-xatar, tavakkalchilik, yo'qotish va zarar yoki foydani yuzaga keltiruvchi omil hisoblanib, ushbu iqtisodiy tushunchalar mazmunini o'zida aks ettiradi. U korxonalar faoliyatini xavf, xatar, tavakkalchilik, yo'qotish va zarar yoki foydaga olib borishda va ularning yuzaga kelishida boshlang'ich manbaa bo'lib xizmat qilgani holda, noaniqlik asosidagi ob'ektiv harakterga ega iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Bunga sabab ishlab chiqaruvchi tomonidan qabul qilingan qaror oldindan ko'rib bo'lmaydigan va kutilmaydigan bir necha noaniq omillar ta'sirida bo'ladi

Ojegov va Shvedova (2006) Risk bu —muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisa, umid|| degan ma'noni anglatadi.

Usoskin (1994) Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, o'z navbatida, oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi.

Sevruk (2006) Risk - bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir.

Grabovoy, Petrova va Poltavtsev (2006) Risk - bu korxona resurslarining bir qismini yo'qotish yoki daromad ola olmaslik, qo'shimcha xarajatlar qilish xavfidir.

Lavrushin (2007) Bank riski ehtimoliy hodisaning qiymat o'lchovi bo'lib, u yo'qotishlarga olib keladi.

Panova (2014) Risk kutilmagan hodisalar yuzaga kelganida yo'qotish xavfi yoki imkoniyatidir.

Sey (2007) Risk foydaning faqat bir qismini shakllantirish omili hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq riskining tadbirkorlik sub'ektlariga ta'siriga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Agar soliqqa tortishning rivojlanish tendentsiyalari bo'yicha jahon amaliyotiga e'tibor beriladigan bo'lsa, adolatli soliqqa tortish amaliyotini kuchaytirishga qaratilgan umumiy jarayonlarni ko'rish mumkin. Bu jarayonning ajralmas qismini davlat budjetiga soliq tushumlarini jalb qilishning barqaror tizimini mustahkamlash bilan bir qatorda, budjetga soliq tushumlarining belgilangan vaqt va miqdorda tushmay qolish xavflarini baholash, uning sabablarini aniqlash hamda bu boradagi ishlarni takomillashtirib borish sanaladi. Jahon amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, soliq tizimida risklarni baholash o'tgan asrning yetmishinchi yillarida ancha rivojlanib, bugunga qadar jahon mamlakatlari tajribasida bu jarayon anchayin takomillashib bormoqda. Bu borada turli xil maxsus alohida konferentsiyalar o'tkazilib, ularda soliq risklarini boshqarish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilib, davlatlar amaliyotga joriy qilib kelinmoqda.

Masalan, shunday muhim tadbirlardan biri 1997-yilda fiskal masalalar bo'yicha qo'mita "risklarni boshqarish bo'yicha amaliyot eslatmasi"ni ishlab chiqib, unda ishtirok etgan mamlakatlarga taqdim qildi. Unda soliq tizimida risklarni boshqarish tamoyillaridan foydalanish yo'nalishlari ham ko'rsatib berilishi bilan bir qatorda daromad tavakkalchiligini boshqarish konsepsiyasi ishlab chiqilgan holda, soliq to'lovchilarda shakllanadigan daromadlarning riskka tortilishi masalalariga alohida urg'u berilgan. Iqtisodiy hamkorlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning soliq sohasidagi vakolatli organlarning 2002-yilda o'tkazilgan uchrashuvida esa, yangi yo'nalish sifatida muvofiqlik risklarini boshqarish masalasini kun tartibga olib chiqishdi. Bunda o'rta va kichik biznesga ta'sir ko'rsatadigan ichki muvofiqlik masalalari bilan birgalikda bu toifadagi soliq to'lovchilarda yuzaga keladigan soliq risklarini to'rt xil yo'nalishda nazorat qilish uslubiyoti ko'rsatib berildi: tizimda ro'yxatdan o'tish bilan bog'liq risklar, soliq to'lovchilarning soliqqa oid zarur ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish yoki taqdim etish bilan bog'liq risklar, to'liq va to'g'ri ma'lumotlar to'g'risida hisobot berish (to'g'ri ish yuritishni o'z ichiga olgan holda) berish bilan bog'liq yuzaga keladigan soliq risklar bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqildi.

Manbalarda keltirilishicha, "muvofiqlik riskini boshqarish - bu soliq qonunchiligiga rioya qilish risklarini (masalan, ro'yxatdan o'tmaslik, soliq majburiyatlari to'g'risida to'g'ri hisobot bermaslik va h.k.) tizimli aniqlash, baholash, tartiblash va davolash uchun tuzilgan jarayon bo'lib, risklarni boshqarish kabi, bu yaxshilangan qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun aniq belgilangan qadamlardan iborat intensiv jarayondir"(OECD, 2004). Bundan tashqari, bu tizim unga rioya qilinishiga ta'sir qiladigan omillarni ham baholashga xizmat qiladigan doimiy jarayon sifatida kelishilgan maqsadlarga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli va oqibatlarini kamaytirishga va innovasiyalar orqali takomillashtirish imkoniyatlarini oshirishga asoslanadi, o'z navbatida xabardorlikni va faol harakatni talab qiladi.

Aslida soliq sohasida muvofiqlik risklarini boshqarish ikki xil yondoshuvga: strategik (yuqoridan pastga) yoki operasion(taktik) darajada (pastdan yuqoriga) qo'llanilishga asoslanadi, bu yondoshuvning birinchisi (strategik)da aniqlangan soliq xavflari odatda "keng qamrovli va ehtiyotkorlik bilan boshqariladigan aralashuvlarni talab qiladi, operativ darajada aniqlangan xavflar esa odatda kundalik biznes sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, qolaversa, strategik darajada muvofiqlik tavakkalchiligini boshqarish muhim soliqqa tortilishi mumkin bo'lgan nomuvofiq xatti-harakatlarning muayyan toifalarini aniqlash" (OECD, 2004)ga qaratilgan bo'ladi.

Soliq tizimida risklarni boshqarish tizimiga oid tajribalarni o'rganish shunday xulosalarni beradiki, Evropa va Osiyo davlatlarining aksariyatida soliq riskini baholashda segmentlash usuli anchayin o'z samarasini ko'rsatmoqda, oxirgi to'rt yil davomida O'zbekiston soliq tizimida ham qo'llanila boshlagan soliq to'lovchilarning faoliyatini segmentlash jarayoni xalqaro ilg'or tajribalardan foydalanishda soliq to'lovchilar faoliyatini segmentlash asosida xavflarni baholashda standartlashga va ketma-ketlik asosidagi usullarni kichik, o'rta va yirik korxonalarda alohida qo'llash amaliyoti O'zbekiston soliq tizimida ham qo'llash o'z ahamiyatiga ega deb hisoblaymiz.

Masalan, bu tajriba Avstriyada keng samarali qo'llanilib kelinmoqdaki, soliq to'lovchilarga oid ma'lumotlarni statistik ma'lumotlar va audit faoliyatining standartlashtirilgan natijalarini to'plash va saqlash asosida baholashni ishonchligini ta'minlamoqda. Bundan tashqari bu mamlakatning ilg'or tajribalaridan biri yana biri shuki, soliq xavfini baholashda aylanma yoki yalpi daromad aktivlar yoki xodimlar soni kabi ko'rsatkichli mezonlarni qo'llashda tizimli yondoshadi, ya'ni, soliq xavfini baholashda bu ko'rsatkichlarning qaysi qay holatda qo'llansa, samara berishini korxonaning ko'lamidan kelib chiqib qo'llanishga urg'u beradiki, bunda ko'rsatkichlarning har birining ichki xususiyati va unga ta'sir etuvchi omillarni ham o'zaro bog'liqlikda baholab boriladi va shunga asoslangan holda xulosalar chiqariladi.


O'z navbatida bu tajriba " Qirollikda biznes segmentasiyasi yalpi aylanmaga asoslansa (<15 ming funt sterling, 15-250 ming funt sterling, 250 ming funt sterling+), Daniyada korxonalar yalpi aylanmasi, ishlarning murakkabligi va ular korporativ yoki korporativ bo'lmagan kompaniyalar bo'lishidan qat'i nazar segmentlarga bo'linadi. va deklarasiyani to'ldiruvchi individual soliq to'lovchilar ishlarining murakkabligi, ularning jamoat profili va xavf holatiga qarab toifalarga bo'linadi"(OECD, 2004).

Soliq riskini baholashda qo'llaniladigan yana bir xorijiy tajribalardan biri sifatida identifikasiyalash tizimlaridan foydalanish tajribasidir. Bu tizimning afzalligi shundaki, soliq to'lovchilarga oid soliq xavfini baholashda foydalaniladigan zaruriy ko'rsatkichlarni olish (unga egalik qilish)ning samarasini ta'minlaydi. Jumaladan, Kanadada xavfni aniqlash samaradorligini aniqlash uchun milliy xavflarni identifikasiyalash tizimlari doimiy ravishda o'lchab boriladi, hisoblangan xavfning turli guruhlar uchun soliq auditi natijalari o'zaro solishtirilib boriladi. Tafovutlarga qarab, soliq xavfiga aniqlik kiritib boriladi.

Ayrim davlatlarda esa, bunday ko'rsatkichlar sifatida sudlar va ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlarga ko'proq tayaniladi. Masalan, Shvesariyada ana shunday usuldan keng qo'llaniladi. Bu mamlakatda fuqarolik sudlari foydali ma'lumot manbai hisoblanadi, masalan, fuqarolarning daromadlari bo'yicha soliq xavfini aniqlashda, er va xotinning ajralishid turmush o'rtog'i ko'pincha soliq tizimida e'lon qilingan daromaddan yuqoriroq daromad haqida guvohlik beradigan holatda uni haqiqiy ko'rsatkich sifatida qabul qilinadi, ushbu mamlakat tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy firibgarlik qurbonlari ko'pincha fiskal firibgarlarga aylanadi, shu sababli Shveytsariya Federal soliq ma'muriyatida ushbu sohada tekshiruvlar o'tkazish uchun maxsus guruhlar tashkil qilingan.

Daniyada esa, "biznesni ro'yxatga olish raqami nafaqat soliq, QQS, bojxona va Aktsizlarni hisoblash uchun, balki barcha holatlarda biznes uchun yagona ro'yxatga olish raqami sifatida ishlatiladi, uchinchi shaxsning biznesga oid ma'lumotlari axborot beruvchining biznes ro'yxatga olish raqamiga bog'langan, biznesni ro'yxatga olish raqami va ish haqi to'g'risidagi

ma'lumotlar bo'yicha hisobotlar, bojxona va QQS bo'yicha deklarasiyalar uchun kirish kodidan foydalaniladi"(OECD, 2004). Avstraliyada esa "noyob raqam" deb nomlangan kodifikasiyadan foydalaniladi, bu raqam odatda biznes reestri orqali tranzaktsiya qilish vakolatini tekshirish uchun ochiq e'lon qilib boriladi, soliq to'lovchiga oid ichki va tashqi manbalarni umumlashtirish imkonini beradi va mos mezonlarni qo'llagan holda soliq xavfi darajasini aniqlaydi, aslida bu raqam har bir soliq turiga alohida alohida beriladi. Bu tajriba Daniyada ham qisman qo'llanila boshlandiki, ya'ni biznes raqami QQS kodiga muvofiq hisob-faktura va kvitantsiyalarda bo'lishi talab etiladi. Ayrim davlatlarda esa, juda ko'plab mezonlardan foydalaniladi, masalan bu tizim Kanadada ko'proq ishlatiladi.



1-rasm. Jahon amaliyotida soliq riskini baholash va uni kamaytirishga oid uslubiy tavsiyalar tizimi

Manba: ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Soliq riskini baholashning xorijiy tajribalarni tahlil qilish natijasida ilg'or tajribalarni saralash borasidagi tadqiqotlarimiz yana bir katta amaliy ahamiyatga ega tajribalardan biri sifatida soliq to'lovchilar kesimida soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlashda, ular bilan bog'liq soliq xavfini baholashning "hulq-atvor tamoyili"ni qo'llash tajribasini keltirish mumkin. Bu usul(tamoyil)da, asosiy e'tibor soliq to'lovchining sosial jihatlarini birinchi o'rinda e'tiborga olinadi, ya'ni, uning soliq to'lashdan qochish tarixi, boshqa korxonalar bilan o'zaro debitorlik-kreditorlik munosabatlaridagi harakati (intizomga amal qilishi), korxonaga turli xil tashkilotlar tomonidan moliyaviy (ma'muriy, jinoiy) javobgarlikka tortilganligi yoki ijobiy ma'noda e'tirof etilganligi, olingan kreditlarni qaytarish faoliyati va shu kabi sosial-institusional mezonlarga asoslanib soliq xavfini aniqlanadi. Fikrimizcha, O'zbekiston soliq tizimida ham ushbu mezonlarga asoslanib, soliq to'lovchilarning soliq xavfini aniqlash, baholash va segmentlash mexanizmlarini amalga oshirish o'z samarasini beradi. Hozirgi vaqtda jaxonda soliq munosabatlarini rivojlantirish muammolari faol muhokama qilinmoqda. Har bir davlat yoki soliq organi soliq tizimini nazorat qilish va uni tartibga solishi kerak bo'lgan muhitga duch keladi. Yurisdiksiyalar o'zlarining fiskal siyosati, ma'muriy amaliyoti, qonunchiligi, tartibi va hokazolari bo'yicha farqlanadi. Shundan kelib chiqadiki, soliqqa rioya qilishni boshqarishning

yakka standart yondashuvini va barcha soliq organlariga muvofiq keladigan soliq qoidalarini o'rnatish to'g'ri emas. Biroq, barcha soliq organlarining asosiy maqsadi bu o'zlarining qonunlari doirasida soliqqa amal qilish bo'yicha maksimal soliq daromadiga erishishdir. Shuning uchun ular muvofiq qoida-amallar va tadbirlar-choralarni va, birinchi navbatda, eng muhim tadbirlarni aniqlab olishlari juda muhimdir. Xususan, soliq organlari quyidagi masalalarga javob topishlari kerak:

1. Birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo'lgan soliq risklari qaysi?
2. Soliq risklari bo'lgan soliq to'lovchilar kimlar?
3. Optimal natijalarga erishish uchun ushbu risk muammolarini qanday echish kerak?

Amalda, yuqoridagi savollarga javob berishni murakkablashtiradigan ko'plab omillar mavjud. Bundan tashqari, mamlakatlar o'rtasidagi turli xil farqlar tufayli universal yo'riqnomani yaratish juda qiyin. Masalan, mamlakatlar o'zlarining madaniy omillari, davlat xizmatiga bo'lgan ishonchi, soliq qonunchiligining murakkabligi, umumiy soliq yuki va hokazolar tufayli soliq qonunchiligiga rioya qilish xulq-atvori bo'yicha farq qilishlari mumkin. Soliqlarga rioya qilish nafaqat mamlakatlararo, balki sanoat sohalari bo'yicha ham farqlanadi. Shu sabablarga ko'ra, mamlakatlar soliqqa riski kontekstida nima muhimligini va qaysi mamlakat amaliyoti ularga ko'proq yoki kamroq muvofiq ekanligini hal qilishlari uchun sistematik jarayonni tuzishlari shart.

Globallashuv sharoitida mamlakatlarning soliq tushumlari tizimini boshqarishda bir-biri bilan hamkorlik qilish zarurati ortib bormoqda. Mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar soliqlarni to'liq miqdorda va muvofiq mamlakatda to'lanishini ta'minlash yo'llarini izlamoqda. Bugungi dunyoda bir qancha omillar soliq riskini, shuningdek, soliq organlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar murakkabligi va hajmini, audit va boshqa qonun hujjatlariga rioya qilish choralar ko'lamini sezilarli darajada oshirdi. Bular jumlasiga elektron savdo hajmi tobora oshib borayotgan xalqaro savdoning o'sishi, bandlik sohasidagi o'zgarishlar va pudratchilar sonining o'sishi, biznes tuzilmalari va moliyaviy xizmatlardagi innovatsiyalar, soliq sxemalarini tovarlashtirish kiradi.

Natijada, soliq organlari o'z resurslariga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rmoqdalar, bu esa soliq qonunlarini qayta ishlash uchun turli yondashuvlar va o'zaro ta'sirlarni talab qiladi.

Tarixan, ko'pgina soliq organlari qonun hujjatlariga rioya qilmaslik xavfini faqat ijro dasturlari doirasida ko'rib chiqishgan. Keng qamrovli audit kabi an'anaviy reaktiv aralashuv strategiyalari qimmatga tushsa-da, soliq riskining ba'zi jihatlarini hal qilish uchun zarur bo'lgan yondashuvi hisoblanadi. Bugungi kunda soliq mutaxassislari soliq organlariga soliq to'lovchilarning qonun hujjatlariga rioya qilish xatti-harakatlariga ta'sir etuvchi omillarni tushunishga ko'proq e'tibor berishga chaqirmoqda, shunda salbiy oqibatlar bilan yuz kelgandan ko'ra, ishlab chiqarilgan va joriy etilgan samaraliroq chora-tadbirlar majmuasi asosiy riskni bartaraf etishga qaratiladi.

Goncharenko (2009) o'z tadqiqotlarida Norvegiya davlatining soliq xavfini kamaytirish usuliga e'tibor qaratdi. Risklarni boshqarish mexanizmlarining asosiy yo'nalishi soliq xodimlarining zimmasidan soliq ma'muriyatining muntazam va past samaradorlik beradigan yukni olib tashlashdan iborat. Shunga ko'ra xodimlarning faoliyati va inson resurslari boshqaruvning, yanada aqlli sohalariga qayta taqsimlanadi. Quyilgan ustuvorliklar natijasida boshqaruv takomillashib, samaradorlik oshadi. Norvegiyada "yashil" va "qizil" chiziqlar tamoyili boshqaruv strategiyasining mag'zi hisoblanadi. Bu tamoyil, boshqaruv funktsiyalarining ijobiy imkoniyatlarga ya'ni istiqbollarga va salbiy tahdidlar hamda ular bilan bog'liq xavflarni fundamental bo'linishiga asoslanadi.

Norvegiyaliklar ajoyib PR texnikasidan foydalangan holda o'z kontsepsiyalarida oldinga borishdi. Boshqaruv modelidagi ijobiy imkoniyatlar "yashil" chiziq, xavf - xatarlar esa – "qizil" bilan bog'liq. Natijada, soliq xizmati iste'molchilari uchun "yashil" bo'xona yo'lagi, "yashil" svetoforga o'xshash signal tushuniladi. Salbiy omillar, xatarlar va ular bilan bog'liq

sub'ektlar qayd etiladi va xavf guruhlariga bo'linadi. Xavf guruhlarini aniqlash falsafasi quyidagicha:

- xavf guruhlarini aniqlash qonunlarning bajarilishi va xavflarni o'lchashga asoslangan. Soliq maslahatchilari soliq to'lovchiga (buxgalterlar, auditorlar, maslahatchilar) yordam ko'rsatgan deb taxmin qilinadi;

- deklarasiyalarning bir qismi "qizil chiziq"ga binoan qayd etiladi. "Qizil chiziq" dan keyin soliq to'lovchi xavf guruhiga o'tkaziladi;

- jismoniy shaxslar va korxonalarining xavf guruhlarini strategik ajratilmaydi.

Norvegiyada xavf guruhlarini aniqlash va boshqarish funktsiyalarini soddalashtirish uchun uchburchak modelidan foydalaniladi. Norvegiya soliq organlarining strategiyasi ko'pchilik fuqarolarning mas'uliyatli soliq to'lovchilar ekanligiga asoslanadi, ular uchburchakning pastki qismida joylashgan va o'zlariga katta e'tibor talab qilmaydi, lekin ular to'g'ri harakatlar uchun to'liq ma'lumotga muhtoj. Qasddan soliq to'lashdan qochadigan soliq to'lovchilar uchburchakning yuqori qismida joylashadi. Ushbu soliq to'lovchilar guruhidan kerakli soliqlarni olish uchun katta resurslar sarflanishi talab qilinadi, buning uchun barcha qonuniy vositalardan foydalanish zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, "oshkor bo'lish xavfi" soliqlarni to'lashda hal qiluvchi omilidir, ammo bu omilning kuchi boshqacha qabul qilinadi. Soliq organlari vijdotsiz soliq to'lovchilarni fosh qilishni ayniqsa oshkora ko'rsatishi kerak.

Vengriyada soliq tekshiruvlarini tanlashda quyidagi xavf omillari baholanadi: yillik soliq tekshiruv doirasiga kiritilgan xavf va soliq tekshiruvi jihatlari; markazlashtirilgan yagona yondashuvlarga muvofiq tashkil etilgan soliq to'lovchilarning soliq ko'rsatkichlari; soliq to'lovchilarning malakasi; ilgari o'tkazilgan soliq tekshiruvlari va ularga qo'shimcha Tabrilar tajribasi, uchinchi shaxslar (boshqa organlar va boshqa soliq to'lovchilar) tomonidan oshkor qilingan ma'lumotlar; ma'lumotlarni oshkor qilish; ma'lumotlar bazalari; xalqaro ma'lumotlar almashinuvi tizimi ma'lumotlari; soliq to'lovchilarning soliq tarixi; ommaviy ma'lumotlar; soliq organining ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan va xavfli qiymatga ega bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

Vengriyada soliq to'lovchilarning ma'lumotlari quyidagicha guruhlanadi:

- soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar,
- uchinchi shaxslardan olingan ma'lumotlar
- Vengriya milliy soliq va bojxona ma'muriyati (NTCA) o'z ma'lumotlari.

Masalan, bu ma'lumotlar, quyidagilarni o'z ichiga oladi: soliq organida mavjud soliq to'lovchilarning asosiy ma'lumotlari; soliq hisoboti va soliq deklarasiyasi ma'lumotlari; ko'chmas mulk va avtomobil registrlari ma'lumotlari; Evropa Ittifoqi davlatlari tashabbusi bilan so'rovlar natijasida qabul qilingan ma'lumotlar; turli biznes-bazalari ma'lumotlari; ekar xabarnoma ma'lumotlari (elektron yo'l-transport savdo nazorat tizimi); VIES nazorat ma'lumotlari; onlayn savdo registrlari ma'lumotlari yoki QQS bo'yicha batafsil ma'lumotlar.

Vengriyada QQS firibgarligi bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan soxta emitentlar va oluvchilar, o'z xaridlari va qayta sotishlarini yashirgan soliq to'lovchilar ma'lumotlari tahlil qilinib solishtirish yuli orqali filtrlanadi. Vengriya soliq ma'murchiligi hajmli ma'lumotlarni avtomatik ravishda ma'lumotlar almashishga e'tibor qaratadi, masalan: QQS(VIES) ma'lumotlari almashinuvi tizimi; xorijiy hisobvaraqlarni soliqqa tortish to'g'risidagi qonunga (FATCA) muvofiq taqdim etilgan ma'lumotlar; moliyaviy hisoblar to'g'risidagi ma'lumot (DAC2/CRS); mamlakatlar bo'yicha hisobotlar(DAC4/CbC). Vengriyadan ko'pincha Slovakiya, Ruminiya, Chexiya, Polsha va Germaniya tomonidan QQS ma'lumotlari so'raladi va Slovakiya, Germaniya va Avstriya so'rovlarning aksariyatini to'g'ri soliqlar tashkil qiladi.

Binobarin, aniqlangan xavf baholangandan so'ng Davlat soliq xizmati organlari quyidagi chora-tadbirlarni ko'radi:

soliq majburiyatlarini bajarilishiga ko'maklashish (soliq to'lovchini xabardor qilish, soliq to'lovchi yarashishga chaqirish, oshkor qilish, ariza berish, ularning soliq deklarasiya ma'lumotlarni to'ldirish va taqdim etish, o'z-o'zini tekshirish);

soliq xavflarini bartaraf etishni rag'batlantirish (soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini uchirib tashlash, NTCA tergov organiga xabar berish); yoki aniqlangan xavfning tabiati tufayli ushbu choralarni qo'llash imkonsiz bo'lsa, soliq organi soliq tekshiruvini o'tkazish uchun soliq to'lovchini tanlash huquqiga ega.

1-jadval

Xorijiy mamlakatlar bo'yicha asosiy soliq risklari zonalari (Mamadaminov, 2019)

Mamlakat	Soliq risklarining asosiy zonalari
Avstraliya	Bo'yin tovlashga yo'naltirilgan soliq sxemalari; yangi moliyaviy instrumentlardan foydalanishi; kompaniya aktivlarini o'stirishga yo'naltirilgan sxemalar (mehnatga haq to'lashni o'zgartirish, ofshorlardan foydalanish, "nozik kapitalizatsiya" instrumenti)
Buyuk Britaniya	Zararlarni sun'iy yaratmoq; aktiv va daromadlarni yashirish maqsadida ofshorlarning bank hisobvaraqlaridan foydalanish
Germaniya	Daromadlarni past solikli yurisdiksiyalarga o'tkazish; ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish; doimiy hukumatlarning xorijiy tashkilotlar tomonidan soliqlardan qochishi
Irlandiya	Ofshorlardan foydalaniladigan sxemalar; daromadlarni yashirish va kapitalning o'sishi; zararlarni sun'iy yaratish yoki oshirib ko'rsatish; ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish
Ispaniya	Mulk sxemalari; ofshorlardan foydalanish; soliqlarni rejalashtirish
Italiya	Ofshor va trastlar (ishonchli mulk) dan foydalaniladigan sxemalar, milliy va xalqaro darajadagi kompleks shartomaviy sxemalar; ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish
Kanada	Daromadlarni sun'iy pasaytirishga va aktivlar qiymatini sun'iy oshirishga yo'naltirilgan bitimlar, xarajatlarni oshirib ko'rsatish, zararlarni oshirish; ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish; soliq imtiyozlarini noqonuniy qo'llash; ofshorlardan foydalanish, transfert narxlarini shakllantirish; qasddan bankrotlikka olib kelish
Janubiy Koreya	"Savdo bitimlaridan" foydalaniladigan sxemalar; ofshorlardan foydalangan holda soliq solishdan bo'yin tovlash; sun'iy zararlarni paydo qilishga va soliqlarni to'lashni kechiktirishga yo'naltirilgan qalbaki qimmatli qog'ozlar sxemasidan foydalanish
Niderlandiya	Soliq bazasini noto'g'ri ko'rsatishga yo'naltirilgan sxemalar; ofshorlar; yuqori daromadga ega jismoniy shaxslar va salmoqli qiymatga ega ularning mulklari
Yangi Zelandiya	Daromadlarni parchalash va sun'iy zararlarni paydo qilish (jismoniy shaxslar uchun); moliyaviy instrumentlardan muntazam foydalangan holda soliq qonun hujjatlaridagi "tirgishlar" foydalanish (kompaniyalar uchun)
Norvegiya	Offshorlardan foydalaniladigan sxemalar
AQSh	Soliq qonunchiligining kamchiliklaridan foydalaniladigan sxemalar; daromad yashirish uchun ofshor tuzilmalardan foydalangan holda soliqlardan bo'yin tovlash, sun'iy xarajatlar va zararlarni paydo qilish
Frantsiya	Juda katta miqdorda soliqqa oid huquqbuzarliklar, ayniqsa xalqaro darajada; iqtisodiy faoliyatni deklaratsiya qilmaslik
Shvesiya	Ofshorlar, bank kartalari va chet el xolding kompaniyalardan foydalaniladigan sxemalar, (jismoniy shaxslar, kichik va o'rta biznesga); tijorat mulklari, zayomlari bilan sxemalar (kompaniyalar)
Yaponiya	Xorijiy davlatlarning soliq tizimidagi imtiyozli holatlar va ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilishga asoslangan soliqlarni rejalashtirishning xalqaro sxemalari; xorijiy "bir kunlik firmalar" dan foydalanish; sxemalarda yangi moliyaviy instrumentlardan foydalanish

Avstraliya soliq monitoringi eng rivojlangan va ochiq tizimli mamlakatlardan biridir. Har yili Avstraliya soliq xizmati riskni boshqarishda soliq ma'murchiligi adekvatligini baholash tizimini amalga oshiradi (ato.gov.au, n.d.). Bu ishning natijasi soliq nazoratining asosiy muammolarini o'z ichiga oladigan "soliq intizomini baholash dasturi" yaratilgan.

Avstraliya soliq idorasi yirik kompaniyalarga nisbatan quyidagi asosiy soliq risklarini alohida qayd etadi:

- biznes birlashishida (konsolidasiyasi) kompaniya guruhlariga o'tkaziladigan tashkilot zararlar;
- chet el yurisdiksiyalarida foydalarning ko'chirilishi (Avstraliya tuzilmalarida bajariladigan Real funktsiyalarga nomuvofiqligi);
- pul mablag'larini jalb qilish uchun gibril moliyaviy instrumentlar (soliqqa tortish maqsadlari uchun uzoq muddatli majburiyatlar va buxgalteriya hisobi maqsadlari uchun ustav kapitaliga qo'yilma sifatida ko'rib chiqiladigan);
- investision kompaniyalar tomonidan yirik infrastruktura loyihalarini amalga oshirish;
- ofshor kompaniyalarning bitimlarida ishtirok etish;
- chet el kompaniyalari ishtirokidagi murakkab moliyaviy bitimlar (xarajatlarning ikki marta qabul qilinishi hamda Avstraliyada va kontragent ro'yxatga olingan mamlakatda deklarasiyalanmagan daromadlar riski).

Soliq risklari ro'yxati va mumkin bo'lmagan soliq sxemalari ro'yxati nashr etilar ekan, davlat tomonidan soliq e'tirozlari ehtimolini pasaytirishga intiladigan Avstraliya soliq idorasi biznes uchun "o'yin qoidasini" shakllantiradi.

Yuqoridagi 1-jadvaldagi davlatlarda soliq riskining asosiy manbai soliq to'lovchilar tomonidan ofshor kompaniyalar ishtirokidagi sxemalardan foydalanishlari keltirilgan. Bundan mustasno holatda, aksar davlatlar ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish, zararlarni sun'iy paydo qilish va soliq qonun hujjatlaridagi kamchiliklardan foydalanishni risk sifatida ko'rib chiqilgan.

Avstraliya, Buyuk Britaniya, Kanada, Yangi Zelandiya va AQSh qonun hujjatlarida soliq risklarini aniqlash tizimida soliq maslahatchilari va auditorlar (promouterlar) tomonidan soliqlarni rejalashtirishning agressiv sxemalari uchun milliy qonunchiliklarga moliyaviy sanksiyalar rejimini joriy qilish o'z aksini topgan.

Xulosa shuki, soliq sohasidagi hamkorlik va muvofiqlashtirish hukumatning ko'p tomonlama sa'y-harakatlari nuqtai nazaridan eng yaxshi amaliyotdir. Bu mamlakatlarning milliy soliq suverenitetiga zarar etkazishdan ko'ra mustahkamlaydi. Biroq, ko'p tomonlama sa'y harakatlar transchegaraviy soliq to'lashdan bo'yin tovlash va soliqdan qochishga qarshi kurashish, shuningdek shaffof bo'lmagan soliq ma'murchiligi qarorlari orqali riskli soliq amaliyotlarining oldini olish uchun muhim ahamiyatga ega. Ko'proq axborot to'plash, tahlil qilish va mamlakatlar o'rtasida hamkorliklikni yulga quyish, ma'lumotlar almashish soliq risklarini boshqarishda sezilarli ijobiy natijalarga olib keladi.

Xulosa va takliflar.

Soliqqa tortishning rivojlanish tendentsiyalari bo'yicha jahon amaliyotiga e'tibor beriladigan bo'lsa, adolatli soliqqa tortish amaliyotini kuchaytirishga qaratilgan umumiy jarayonlarni ko'rish mumkin. Bu jarayonning ajralmas qismini davlat budjetiga soliq tushumlarini jalb qilishning barqaror tizimini mustahkamlash bilan bir qatorda, budjetga soliq tushumlarining belgilangan vaqt va miqdorda tushmay qolish xavflarini baholash, uning sabablarini aniqlash hamda bu boradagi ishlarni takomillashtirib borish sanaladi. Jahon amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, soliq tizimida risklarni baholash o'tgan asrning etmishinchi yillarida ancha rivojlanib, bugunga qadar jahon mamlakatlari tajribasida bu jarayon anchayin takomillashib bormoqda. Bu borada turli xil maxsus alohida konferentsiyalar o'tkazilib, ularda soliq risklarini boshqarish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilib, davlatlar amaliyotga joriy qilib kelinmoqda.

Bugungi kunda soliq riskini boshqarish bo'yicha mavjud muammolar xususida fikr bildiradigan bo'lsak, birinchisi bu soliq to'lovchilarning soliq xavfini aniqlashda, faoliyati shubali bo'lgan korxonalarni aniqlashning murakkabligi muammosidir.

Soliq risklarini kamaytirish bo'yicha takliflar:

1. Tizimli ichki auditni yo'lga qo'yish. Har chorakda soliq va buxgalteriya hisobotlari qayta ko'rib chiqilishi. Noto'g'ri yoki kechiktirilgan hisobotlar aniqlansa, zudlik bilan tuzatish.

2. Avtomatlashtirilgan soliq hisob-kitob tizimlari. Soliqlarni hisoblashda inson xatolarini kamaytirish uchun 1S, SAP, Zoho va boshqa dasturlardan foydalanish.

3. Soliq maslahatchilari yoki auditorlar bilan hamkorlik. Doimiy huquqiy va soliq masalalari bo'yicha maslahat olish. Qonun o'zgarishlarini kuzatib borish va faol ravishda amaliyotga joriy etish.

Adabiyotlar/Алмепамыпа/References:

Ashurov Maxammadjon Sotvoldievich. (2020) *Risk muhitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun.*

ato.gov.au (n.d.) Avstraliya soliq boshqarmasi materiallari - <http://www.ato.gov.au>

Boboev Sh.B. (2020) *Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. Toshkent. 19 b.*

Grabovoy P.G., Petrova S.N., Poltavtsev S.I. (2006) *Riski v sovremennom biznesa. M.: —Alans. Lavrushin O.I. (2007) Bankovskie riski. - M.: —Knorus.*

Mamadaminov N. Y. (2019) *Soliq risklarini boshqarishning xalqaro tajribasi "Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral.*

OECD (2004) *Organisation for economic co-operation and development. Compliance Risk Management: Managing and Improving Tax Compliance. Forum on Tax Administration Committee on Fiscal Affairs Compliance Sub-group October. <https://www.oecd.org/tax/administration/33818656.pdf>. p.8.*

Ojegov S.I., Shvedova N.Yu. (2006) *Tolkoviy slovar russkogo yazika. — M.: OOO —A TEMP.*

Panova G.S. (2014) *Kreditnaya politika kommercheskogo banka. - M.: —Yurayt.*

Sevruk V.T. (2006) *Bankovskie riski. M.: —Delo-LTD.*

Sey, J.B. (2007) *Traktat po politicheskoy ekonomii. — M.: —Direkt-Media.*

Usoskin V.M. (1994) *Sovremenniy kommercheskiy bank: upravlenie i operatsii. - M.: IPS "vazar-Ferro".*

Кодекс (2020) *Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёт уйи.- 640 б.*

Насимов Р.А. (2024) *“Солиқ юкини оптималлаштириш йўллари” (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент.*